



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 20-may, № 101 (9272)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



AVTOMOBILSOZLIK SANOATIDA RAQOBAT KUCHAYTIRILIB, MAHALLIYLASHTIRISH CHUQURLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-may kuni avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va tarmoq raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda avtomobilsozlik sohasi rivojiga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Bu tarmoq yuqori qo'shilgan qiymat, sanoat kooperatsiyasi, minglab ish o'rinlari va eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda O'zbekiston avtomobilsozlik sanoati raqobat va iste'molchi manfaatiga yo'naltirilgan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. O'n yil avval avtomobil bozori deganda bitta ishlab chiqaruvchi va uzoq navbatlar tushunilgan bo'lsa, bugungi kunda "Chevrolet", "BYD", "KIA" va "Hyundai" kabi yirik brendlar bilan hamkorlikda 5 ta avtomobil zavodi faoliyat yuritmoqda.

Eng muhimi, bu o'zgarishlarni aholi bevosita his qilmoqda. Bozorda tanlov kengaydi, uzoq

navbatlar barham topdi. Joriy yilda avtomobil savdosiga 20 ta bank jalb qilinib, avtomobillarning 95 foizi bo'lib-bo'lib to'lash va qulay kredit tizimi orqali sotildi.

Ayni paytda qo'shni davlatlar uchun ham avtomobil va butlovchi qismlar ishlab chiqarish rivojlanmoqda. Soha atrofida yangi kooperatsiya zanjirlari shakllanib, 10 mingdan ortiq yoshlar zamonaviy texnologiyalar asosida ishlamoqda. 300 dan ziyod korxonalar "Chevrolet", 40 ga yaqin korxonalar "KIA" va "BYD" uchun butlovchi qismlar yetkazib bermoqda.

Taqdimotda avtomobilsozlikda ishlab chiqarish hajmini va band bo'lganlar sonini 1 milliontaga yetkazish masalalari ko'rib chiqildi.

Yengil va tijorat avtomobillarini ishlab chiqarish hamda yig'ish

bo'yicha ko'plab loyiha takliflari kelib tushayotgani O'zbekistonda qulay investitsiya muhiti va yuqori daromadli bozor shakllanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, har bir loyiha bozor talabi va iqtisodiy samara asosida baholanishi, asosiy e'tibor tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lishga qaratilishi zarurligi ta'kidlandi.

Taqdimotda "Volkswagen" avtomobillarini ishlab chiqarish loyihasi haqida axborot berildi. Rejaga ko'ra, birinchi bosqichda Toshkent shahrida yirik uzelli ishlab chiqarishni boshlash ko'zda tutilgan. Keyingi bosqichda Angren erkin iqtisodiy zonasi hududida to'liq siklda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, mahalliyashtirish darajasini oshirish va eksport bozorlariga chiqish rejalashtirilgan.

Bugungi global vaziyat

avtomobilsozlik sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani qayd etildi. Shu bois texnologik mustaqillikni ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va eksport hamda logistika cheklovlariga kamroq bog'liq bo'lgan raqobatbardosh milliy mahsulotlar yaratish vaqti kelgani ta'kidlandi.

Bu borada Andijon va Jizzaxda zamonaviy muhandislik maktablari ochilgani, yosh tadqiqotchilar va muhandislar shakllanayotgani, umuman, mahalliy mahsulotlarni kengaytirish va yakuniy mahsulot yaratish uchun zarur intellektual salohiyat mavjudligi ko'rsatib o'tildi. Shu maqsadda "O'zavtosanoat" AJ tizimida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyati rivojlantirilishi belgilandi.

Sohadagi yana bir katta imkoniyat – ehtiyot qismlar bozori

ekani ta'kidlandi. Shu munosabat bilan ehtiyot qismlar bozorini tartibga solish, mahalliy mahsulotlar ulushini oshirish, sertifikatlash tizimini takomillashtirish va zamonaviy sinov laboratoriyalarini tashkil qilish zarurligi qayd etildi. 2026-yil yakuniga qadar xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda avtomobil ehtiyot qismlar bozorini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish vazifasi qo'yildi.

Prezidentimiz avtomobilsozlik sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri ekanini ta'kidlab, sohada raqobatni kuchaytirish, mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, milliy muhandislik maktabini rivojlantirish yuzasidan aniq topshiriqlar berdi.

O'ZA.

O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat

Biz va jahon

INTELLEKTUAL SALOHİYAT VA BIRDAMLIK

– TURKIY DUNYONING YANGI DAVRDAGI BOSH FORMULASI

Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) qardosh xalqlarni birlashtirgan noyob institutga aylandi. 2009-yilda kengash sifatida tashkil etilgan va 2021-yilda tashkilot maqomini olgan mazkur tuzilmaning xalqaro nufuzi yildan-yilga ortib bormoqda. Umumiy maydoni 4,25 million kvadrat kilometr va aholisi taxminan 160 million kishi hisoblangan TDT bugungi kunda turkiy dunyoning geosiyosiy ta'sirini kuchaytiruvchi muhim mintaqaviy birlikka aylanayotgani ko'z o'ngimizda namoyon bo'lyapti.



Tuzilmaning global jarayonlardagi roli kuchayib borayotgan bir paytda uning kuch markazlaridan biri sifatidagi salohiyatini asoslovchi baholar tobora ko'proq yangramoqda. Boshqa davlatlar ham tashkilotga qiziqish bildirayotgani, ular bilan muloqot uchun yangi "TDT+" formati yaratilayotgani, qiziquvchilar orasida AQSH, Yaponiya, Isroil, Xitoy, Buyuk Britaniya va Ukraina borligi fikrimizni tasdiqlaydi.

Shuningdek, so'nggi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti barqaror rivojlanish sur'atlarini namoyish etayotgan nufuzli tuzilmaga aylandi. Jumladan, 2025-yilda TDT davlatlari umumiy iqtisodiy salohiyati 2,4 trillion dollardan oshdi va uning dinamikasi global o'sishdan ikki barobar yuqori bo'ldi. O'tgan yili O'zbekistonning TDT mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 14 foiz o'sdi. Joriy yildan Turkiy investitsiya jamg'armasi operatsion faoliyatini boshladi. Markaziy banklar kengashi, "yashil" moliyalashtirish bo'yicha Turkiy kengash ishi yo'lga qo'yildi.

Yaqinda Qozog'iston TDTning asosiy mavzusi – "Sun'iy intellekt va raqamli rivojlanish" norasmiy sammitiga mezbonlik qildi. O'zgarib borayotgan dunyo tartibi sharoitida uchrashuv nafaqat turkiy hamjamiyat uchun yangi yo'nalishlarni belgilashga, balki Markaziy

Osiyo suverenitetini mustahkamlashga ham qaratilgan. Bugun qardosh davlatlarning siyosiy-iqtisodiy aloqalari mustahkam, madaniy-gumanitar aloqalari jadal. An'anaviy sammitlarda umumiy manfaatlar chetda qolmasligi, har bir xalqning ovozi tiniq eshitilib, teng imkoniyatlar yaratilishi asosiy vazifaga aylandi. Turkistonda uyushtirilgan yig'ilishning ham asosiy mohiyati shu tamoyildan uzoqlashmadi.

Ilgari surilgan hayotiy tashabbuslar

Turkiston shahrida bo'lib o'tgan sammitda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar ekspertlar hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otdi. Mazkur takliflar turkiy dunyoni an'anaviy logistika markazidan yuqori texnologik innovatsiyalar makoniga aylantirish yo'lidagi strategik burilish nuqtasi sifatida baholanmoqda. Avvalo, sun'iy intellekt bo'yicha strategik hamkorlik tarmog'ini shakllantirish va "Raqamli turkiy koridor" konsepsiyasini yaratish haqidagi taklif mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Kvant hisoblash texnologiyalarini joriy etish esa turkiy davlatlarga katta ma'lumotlar (Big Data) bilan ishlashda dunyoning yetakchi davlatlari bilan raqobatlashish imkonini beradi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida



INSON HUQUQLARI VA QONUNYI MANFAATLARI KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga daxldor masalalar, jumladan, sudlar yuklamasini kamaytirishga, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini manzilli ko'lab-quvvatlash choralari takomillashtirishga, iste'molchilar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini kuchaytirishga qaratilgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi. Shuningdek, parlament nazorati faoliyatiga oid masalalar ham muhokama qilindi.

Nizosiz ishlarni hal qilish osonlashadi

Majlisda nizosiz ishlarni hal etish tartib-taomillarini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Fuqarolik protsessual va Iqtisodiy protsessual

kodekslaridagi sud buyrug'i tartibida ko'riladigan ayrim nizosiz talablarga oid ishlarning doirasi qayta belgilanmoqda. Qonun loyihasi, avvalo, nizosiz ishlarni ko'rishni osonlashtirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n beshinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

19-may kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n beshinchi yalpi majlisi o'z ishini davom ettirdi.



Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning

"YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Yalpi majlisning ikkinchi ish kuni "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokamasidan boshlandi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion

jihatdan rivojlantirishni rag'batlantirishga, mazkur sohadagi ijodiy salohiyatni iqtisodiy qiymatga aylantirishga hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga, yoshlar va tadbirkorlarning ijodiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, kreativ iqtisodiyotning izchil rivojlantirilishini ta'minlash ushbu

sohadagi subyektlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar, rag'batlantiruvchi mexanizmlar yaratishni va imtiyozlar berishni taqozo etmoqda.

Qonun bilan ayrim qonun hujjatlariga Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi hamda Kreativ industriya parki rezidentlari tomonidan amalga oshiriladigan loyihalarga jalb qilingan mutaxassislar uchun ayrim soliq imtiyozlari berilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Jumladan, 2026-yildan 2030-yilga qadar bo'lgan davrda chet el kontragentlari ko'shilgan qiymat solig'i, to'lov manbaida foyda solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashdan ozod qilinadi. Bunda ushbu imtiyoz chet el kontragentlari kreativ industriya sohasiga bevosita bog'liq bo'lgan ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun jalb etilganda qo'llanilishi belgilanmoqda.



IJTIMOIY ADOLATNING AMALIY IFODASI

Davlatimiz rahbarining Bokudagi Butunjahon urbanizatsiya forumining 13-sessiyasi doirasida o'tkazilgan Yetakchilar sammitida so'zlagan nutqi hamda ilgari surgan tashabbuslari Yangi O'zbekistonning urbanizatsiya masalasiga inson qadri, ijtimoiy adolat va kelajak avlodidagi mas'uliyat asosida yondashayotganini yana bir bor namoyon etdi.

Aks sado

Ayniqsa, Prezidentimizning "barcha uchun uy-joy" g'oyasiga urg'u bergani partiyamiz uchun alohida ahamiyatga ega. Zero, munosib uy-joy – shunchaki boshpana emas. Bu inson salomatligi, farzandlar ta'limi, oila barqarorligi, mehnat unumdorligi, shuningdek, shaxsning jamiyatda o'zini to'laqonli a'zo sifatida his etishi bilan bevosita bog'liq ijtimoiy huquqdir.

Nutqda keltirilgan raqamlar ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lamini yaqqol ko'rsatib turibdi. So'nggi o'n yilda mamlakatimizda qurilayotgan uy-joylar sonining bir necha barobar oshgani, arzon uy-joy dasturlariga sezilarli mablag'lar yo'naltirilayotgani, 100 mingga yaqin xonadonlarga huquqiy

hujjatlar rasmiylashtirib berilgani – bularning barchasi odamlarning yillar davomida to'planib kelgan hayotiy muammolariga amaliy yechim topilayotganidan dalolat beradi.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatni ta'kidlash lozim: urbanizatsiya faqat poytaxt yoki yirik shaharlarning rivoji bilan cheklanmasligi kerak. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "mutanosib urbanizatsiya" tamoyilini keng joriy etish tashabbusi aynan shu jihatdan alohida e'tiborga ega. Bu kichik va o'rta shaharlarni ham zamonaviy infratuzilma, ish o'rinlari, sifatli ta'lim va tibbiyot xizmatlari, qulay transport hamda boy madaniy muhit bilan ta'minlash, hududlar o'rtasidagi imkoniyatlar tafovutini kamaytirish demakdir.



O'zbekiston iqtisodiyoti tarixida ilk bor milliy aksiyalar xalqaro ommaviy savdoga chiqarildi. O'zbekiston Milliy investitsiya jamg'armasi "Franklin Templeton" kompaniyasi bilan hamkorlikda bir vaqtning o'zida London va Toshkent fond birjalarda "IPO" jarayonini boshladi.

Xushxabar

Davlatimiz rahbarining xalqaro maydondagi tashabbuskorligi, yurtimizdagi qulay investitsiyaviy muhit, shaffoflik, barcha sohada raqamlashtirishning yuqori darajada joriy qilinayotgani o'z samarasini bermoqda. London fond birjasida o'tkazilgan tantanali marosimda xalqaro ekspertlar, fond bozorlari bo'yicha yetakchi kompaniyalar rahbarlari buni alohida e'tirof etdi.

Xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, keyingi besh yilda bunday katta miqdordagi davlat aktivlari London fond birjasiga qo'yilmagan. O'zbekiston ana shunday zalvarli qadam tashladi va o'z aktivlarini

xalqaro birja savdosiga chiqardi. Mamlakatimiz Milliy investitsiya jamg'armasi aksiyalarining London fond birjasidan o'rin olishi yurtimizning xalqaro kapital bozoriga integratsiyalashuvini yanada tezlashtiradi. Bu yangilik London fond birjasi ijrochi direktori Julia Xoggest ta'rif bilan aytganda, O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va investitsiya muhiti yaxshilash siyosatining yorqin isbotidir. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu shunchaki moliyaviy bitim emas, balki O'zbekistonning yangi taraqqiyot modeli – ochiq, raqobatbardosh va xalqaro standartlarga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tayotganini anglatuvchi tarixiy qadam.

2 MILLIARD 400 MILLION DOLLARLIK DAVLAT AKTIVLARI – LONDON FOND BIRJASIDA

Shu o'rinda savol tug'iladi: nega aynan London fond birjasi? Chunki bu ishonchli va global bozorda e'tirofqa loyiq, dunyo moliyachilarining diqqat-e'tiborida turadigan moliyaviy platformadir.

Toshkent va London fond birjalarda bir vaqtning o'zida savdoning boshlanishi ham mahalliy, ham xalqaro investorlar uchun muhim signal bo'lib xizmat qildi. Fond aksiyalari savdoning dastlabki kunlarida kuchli o'sishni ko'rsatdi. 13-maydagi dastlabki joylashtirish narxi 25 dollardan 26 dollarga, 14-mayda 27,20 dollarga va 15-mayda 27,25 dollarga yetdi. Bir necha kun ichida kuzatilgan 10 foizlik o'sish bozorning O'zbekiston aktivlariga doimiy qiziqishini namoyish etdi. Investorlarning tarkibi, ayniqsa, ahamiyatli. "IPO"da dunyodagi eng yirik institutsional aktorlar – "BlackRock", "Franklin Resources", "Redwheel" va boshqa xalqaro kompaniyalar qatnashdi.

Bunday institutlar odatda makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional sifat va o'sish istiqbollarini batafsil tahlildan o'tkazganidan so'ng qaror qabul qiladi. Ularning ishtirokini O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarga ishonchning ortib borayotganidan dalolat sifatida ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saidra Mirziyoyeva ta'kidlaganidek, yirik xalqaro investorlarning "IPO"da ishtirok etishi xalqaro hamjamiyatning mamlakat salohiyati va kelajagiga ishonchning yorqin namoyishidir. Chunki so'nggi yillarda amalga oshirilgan tizimli islohotlar tufayli mamlakat iqtisodiyoti uch baravar oshdi, investorlar uchun kafolatlar mustahkamlandi va O'zbekiston xalqaro kapital bozorida yanada ochiq va ishonchli sherikka aylandi. Ushbu tadbirning ahamiyati mamlakat chegaralaridan ancha tashqarida, dunyo bo'yicha aks sado bermoqda.





INSON HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARI KAFOLATI

◀ Jumladan, endi ijara to'lovlar, ko'p kvartirali uylardagi joylarning mulkdorlaridan majburiy badallar va to'lovlar, kommunal va aloqa xizmatlari bo'yicha qarzdorlikni undirish bilan bog'liq talablarning miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ming baravaridan ko'p bo'lgan taqdirda sud tomonidan buyruq tartibida ko'rib chiqiladi. Mazkur miqdordan kam bo'lgan nizosiz talablarga doir ishlar esa notariuslar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Loyiha bilan "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunda ijro xatlarini yozib berganlik uchun undiriladigan summaning miqdori notarius tomonidan bunday notarial harakatni amalga oshirganlik uchun sarflanadigan haqiqiy xarajatlar miqdoriga muvofiqlashtirilmoqda.

Muhammad VALIYEV,
Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Qonun loyihasining ahamiyatli tomoniga to'xtaladigan bo'lsak, uning eng muhim jihati – nizosiz talablarni hal etish tartibini soddalashtirish. Bu orqali fuqarolar va tadbirkorlar o'rtiqcha ovoragarchiliklarsiz, qisqa muddatda o'z huquqlarini himoya qilish imkoniga ega bo'ladi. Nizosiz ishlar bo'yicha ayrim talablarning notariuslar tomonidan ko'rib chiqilishi sudlarning ish hajmini kamaytiradi. Natijada sudlar murakkab nizolarni ko'rib chiqishga ko'proq vaqt va resurs ajrata oladi. Ushbu hujjat sud tizimi samaradorligini oshirish, notarial xizmatlar sifatini yaxshilash hamda nizosiz talablarni hal etishda qulay va tezkor mexanizm yaratishga xizmat qiladi.



Muhokamalardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Davlat chegarasini buzganlik uchun javobgarlik kuchaytiriladi

Davlat chegarasini muhofaza qilish va uning daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda obdan muhokama qilindi.

Hujjat bilan Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Loyihaga muvofiq, yer ostida noqonuniy barpo etilgan inshootlar, tunnellar yoki boshqa infratuzilma obyektidan foydalangan holda sodir etilgan bojxona qonunchiligini buzish holatlari og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilanmoqda.

Shuningdek, bunday inshootlar va tunnellar orqali qonunga xilof ravishda chet elga chiqish, O'zbekiston Respublikasiga kirish yoki davlat chegarasini kesib o'tish holatlari uchun ham javobgarlik kuchaytirilayapti.

Qonun loyihasida davlat chegarasi orqali yer ostida noqonuniy inshootlar va tunnellar qurilishiga yoki boshqa infratuzilma obyekti barpo etilishiga bila turib shart-sharoit yaratish, ulardan foydalanish, shuningdek, ushbu faoliyatni moliyalashtirish uchun alohida jinoyi javobgarlik belgilanmoqda.

Gulchehra TOJIBOYEVA,
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Mazkur qonun loyihasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat xavfsizligini mustamlash, davlat chegarasi orqali sodir etiladigan noqonuniy harakatlarning oldini olish, bojxona qonunchiligi buzilishiga qarshi ta'sirchan huquqiy mexanizmlarni kuchaytirishga qaratilgan.



Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qo'llab-quvvatlanadi

Deputatlar aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini xalqaro standartlar asosida yanada mustahkamlash, ularning odil sudlovdan to'liq va teng foydalanishini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini manzilli va samarali tashkil etish nazarda tutilmoqda. Xususan, loyihadagi "Ijtimoiy reyestr"ga kiritilgan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yagona mexanizmini joriy etish taklif qilinmoqda.

Unga muvofiq ijtimoiy xizmatlar, nafaqalar, imtiyozlar va boshqa kafolatlar "Ijtimoiy reyestr"ga kiritilgan oilalarga taqdim etiladi. Bundan tashqari, Soliq kodeksiga nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlashni rag'batlantiruvchi qator imtiyozlar kiritilmoqda. Jumladan, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan yuridik shaxslar uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilanmoqda. Nogironligi bo'lgan xodimlarga yordam ko'rsatish bilan



bog'liq ayrim xarajatlarni soliq bazasidan chegirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar mehnat qilayotgan korxonalar uchun mol-mulk va yer solig'i bo'yicha qo'shimcha yengilliklar berish taklif etilmoqda. Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo'linmalariga o'rtiqcha to'langan nafaqalarni undirish yuzasidan sudga murojaat qilishda davlat bojini to'lashdan ozod etish belgilanyapti.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida qator tahriri va yuridik tuzatishlar kiritilgani, ayrim normalar deputatlarining takliflari asosida takomillashtirilgani qayd etildi.

Muhokamalarda qator savol va takliflar o'rtaqa tashlandi.

Shuhrat YOQUBOV,
"Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi:



– Qonun loyihasining 22-moddasida "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 6 va 18-moddalarining birinchi qismidagi "taqiqlanadi" degan so'zdan keyin "va qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi" degan so'zlar bilan to'ldirish taklif etilmoqda. Fikrimizcha, ushbu hujjatga bunday tahrirdagi qo'shimcha kiritish zarurati mavjud emas. Chunki yuqoridagi Qonunning 45-moddasida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu holatda javobgarlik umumiy tarzda mazkur normalar bilan belgilanadi. Shu bois bu qo'shimchalarning o'rtiqcha yuki bo'lmaganligi uchun chiqarib tashlashni taklif qilaman.

Bu bo'yicha siyosiy partiyalar fraksiyalari a'zolari, qonun tashabbuskorlari o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi. Qizg'in muhokamalardan so'ng deputat taklifi qo'llab-quvvatlandi.

Majlisda qonun loyihasi ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatamlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishi alohida ta'kidlanib, uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Nuqsonli tovarni almashtirish tartibi aniq belgilab qo'yilmoqda

Majlisda "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi iste'molchilarning qonuniy manfaatlarini yanada ishonchli himoya qilish, ayniqsa, nuqsonli tovarlarni almashtirish jarayonidagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan.

Qayd qilinganidek, amaldagi qonunchilikda nuqsonli tovarni almashtirish jarayonida tovar sifatini qo'shimcha tekshirish asoslari va tartib-taomillari aniq belgilanmagan. Bu ayrim holatlarda tovarni almashtirish muddatining asossiz ko'zlitishiga, natijada esa iste'molchilarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmog'da.

Qonun loyihasi bilan "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasi tegishli normalar bilan to'ldirilmoqda. Unga ko'ra, iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishi, tuzilishi yoki tarkibiga oid kamchiliklarni aniqlagan taqdirda, sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi aynan shunday markali tovar mavjud bo'lsa, uni darhol almashtirib berishi shart bo'ladi. Amaldagi tartibga ko'ra, 7 kun ichida almashtirilishi belgilangan.

Loyihadagi qo'shimcha tekshirish o'tkazish asoslari ham aniq belgilab qo'yilmoqda. Jumladan, tovardagi nuqsonlar iste'molchiga tovar realizatsiya qilinganidan keyin saqlash yoki foydalanish qoidalarining buzilishi yoxud uchinchi shaxslarning harakatlari natijasida kelib chiqqan bo'lishi mumkinligini tashqi ko'rinishidan aniqlash imkoni bo'lmagan holatlarda qo'shimcha tekshiruv o'tkaziladi.

Mahsulot sifatini qo'shimcha tekshirish bilan bog'liq xarajatlar sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan qoplanadi. Biroq tekshirish natijasida tovarda nuqson mavjud emasligi yoki nuqson iste'molchining qoidalarini buzishi yoxud uchinchi shaxslar harakati oqibatida kelib chiqqanligi aniqlansa, ushbu xarajatlari iste'molchi tomonidan qoplanishi belgilanmoqda.

Hujjatda iste'molchining huquqlari ham aniq belgilab qo'yilayapti. Xususan, u shaxsan yoki o'z vakili orqali tovar nuqsonining kelib chiqish sabablarini tekshirish jarayonida ishtirok etish, tekshiruv vaqti va joyi haqida oldindan xabardor qilinishi hamda o'z mablag'lari hisobidan mustaqil

tekshiruv o'tkazishni talab etish huquqiga ega bo'ladi.

Majlisda qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilinganidan so'ng unga mas'ul – Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi taklifiga ko'ra, ushbu hujjat ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi. Qator savollar o'rtaqa tashlandi.

Jumladan, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zolari "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish

to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasi birinchi qismiga kiritilayotgan qo'shimcha normalar, ya'ni "agar aynan shunday markali (modelli, artikulli) tovar undan mavjud bo'lsa" degan jumla mantiqan to'g'ri emasligi va bu amaliyotda iste'molchilar zarariga ishlashi mumkinligini qayd etdi. Shuningdek, ushbu moddaning beshinchi qismida "Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo'lmagan taqdirda, iste'molchining almashtirib berish xususidagi talabi da'vo qilingan paytdan e'tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak" mazmunidagi norma mavjudligi, agar haqiqatda ham sotuvchida bunday markali tovar bo'lmasa, shu qism tartibiga solinishi kerakligi ta'kidlandi.

Majlisda bu bo'yicha qizg'in fikr-mulohazalar bildirildi. O'zLiDeP fraksiyasi a'zolari qo'mita tahririni qo'llab-quvvatlab, "tovar mavjud bo'lsa" degan jumla chiqarib tashlash huquqiy ziddiyat keltirib chiqarishini bildirdi. Ularning ta'kidlashicha, bu holda moddaning birinchi va beshinchi qismlari o'zaro qarama-qarshi bo'lib qoladi.

Qizg'in tortishuvlardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari muhofaza qilinadi

Deputatlar "Shaxsga doir ma'lumotlar almashinuvi sohasidagi ma'muriy masalalar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi Bitimni (2020-yil 18-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun loyihasini ko'rib chiqdi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda O'zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va xavfsizlikka oid hamkorlik aloqalari muvaffaqiyatli tarzda rivojlanmoqda.

Ushbu qonun loyihasida Shaxsga doir ma'lumotlarni almashishda Ma'muriy masalalar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi Bitimni (2020-yil 18-dekabr) ratifikatsiya qilish nazarda tutilmoqda.

Bitimga muvofiq har bir tomon boshqa tomonning so'roviga ko'ra milliy qonunchilik va ushbu Bitim qoidalariga ko'ra shaxsga doir ma'lumotlar almashinuvi sohasidagi ma'muriy masalalar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatadi.

Huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi so'rovning predmeti bo'lib fuqarolikning mavjudligi, tomonlar hududlarida doimiy (vaqtinchalik) bo'lish (yashash) huquqini beruvchi hujjatlar mavjudligi, shaxslarning migratsiya ro'yxatiga olinishi yoki yashash bo'yicha hisobga olinganligi, shaxs nomidagi ro'yxatga olingan ko'chmas mulk va shaxslarning mulkiy xususiyatdagi majburiyatlari, shaxsning jinoyi yoki ma'muriy javobgarlikka tortilganligi to'g'risida, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarga oid shaxsga doir ma'lumotning hisoblanadi. So'rovlar so'ralayotgan tomonning milliy qonunchiligi va mazkur Bitim qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xushvaqt HAYITOV,
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zosi:



– Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi MDH ishtirokchi-davlatlari o'rtasida shaxsga doir ma'lumotlar almashinuvining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlaydi. Eng muhimi, fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning mulkiy hamda shaxsiy huquqlarini ishonchli himoya qilish, shuningdek, huquqiy munosabatlarda shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Muhokamalardan so'ng qonun loyihasi qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Davlat arxitektura nazorati qay darajada bajarilmoqda?

Deputatlar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri Sh. Xidoyatovning "Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlariga shaharsozlik faoliyati subyektlari tomonidan rioya etilishi ustidan davlat arxitektura nazoratini amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida"gi parlament so'roviga berilgan javobini ham ko'rib chiqdi.

Unda keltirilishicha, davlat arxitektura nazoratini samarali amalga oshirish maqsadida 2025-yilda vazirlik markaziy apparatida Davlat arxitektura nazorati departamenti tashkil etilgan. O'tgan davr mobaynida departament tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Departament tomonidan 2025-yil yakuniga qadar 640 ta, joriy yil holatiga 520 ta, jami

1160 ta o'zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshoot aniqlangan. Shundan, 1 110 ta obyektaga ogohlantirish xati berilib, ma'muriy javobgarlik choralari qo'llangan. 118 tasi hozirgi kunda bartaraf etilgan bo'lsa, 65 tasi bo'yicha majburiy buzdirish haqida sudga da'vo arizasi kiritilgan.

Nazorat tizimini raqamlashtirish maqsadida vazirlik tomonidan "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida o'zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlarni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha avtomatlashtirilgan tizim yaratildi. Mazkur tizim Adliya vazirligining "Notarius", Ichki ishlar vazirligining "E-ma'muriy ish", Oliy sudning "Adolat", Kadastr agentligining "UzKad" axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan.

Parlament so'roviga kelgan javobda qayd etilganidek, Davlat arxitektura nazorati departamenti hamda tuman va shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limlari xodimlari 232 ta maxsus planshet vositalari bilan ta'minlangan.

Shuningdek, vazirlik tomonidan o'zboshimchalik bilan qurilgan bino va inshootlarni aniqlash, bartaraf etishda jamoatchilik ishtirokini samarali tashkil etish maqsadida "Ogoh fuqaro" axborot tizimi yaratilgan bo'lib, u orqali o'zboshimcha qurilish olib borilayotgan holatlar to'g'risida xabar berish imkoni yaratildi.

Deputatlar ushbu yo'nalishda vazirlik tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilgani, shu bilan birga, shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, noqonuniy qurilishlarning oldini olishda profilaktik va preventiv choralarni kuchaytirish, "Ogoh fuqaro" axborot tizimini yanada omallashtirish yuzasidan tegishli tavsiyalar berdi.

Majlisda mazkur masala yuzasidan tizimli parlament nazorati olib borilishi qayd etilib, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining javobi ma'lumot uchun qabul qilindi.

Ichki ishlar vazirining javobi ko'rib chiqildi

Majlisda ichki ishlar vazirining "Automobil yo'llaridagi foto va video qayd etish texnika vositalarining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashdagi samaradorligi hamda yo'l harakati sohasiga axborot texnologiyalarini joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi parlament so'roviga javobi haqidagi masala ham ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, Qonunchilik palatasi deputatlarining saylov okruglariga fuqarolar bilan o'tkazgan muloqotlari va uchrashuvlari davomida transport vositalari haydovchilari tomonidan sodir etilgan qoidabuzarliklarni aniqlovchi foto va video qayd etish texnika vositalari hamda ko'chma fotolaridatirgan faoliyati, sun'iy yo'l notekisliklarni o'rnatishda belgilangan standartlarga rioya etilmayotgani borasida bildirilgan ayrim e'tirozlardan kelib chiqib, ichki ishlar vaziriga parlament so'rovi yuborilgan edi.

Xususan, parlament so'rovida yo'l chiziqlarini chizish, yo'l infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishidagi loyihalarni moliyalashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar, foto va video qayd etish texnika vositalarining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashdagi samaradorligi va natijadorligi, sun'iy yo'l notekisliklarini o'rnatishda belgilangan me'yor va standartlarga rioya etilishini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, yo'l harakati ishtirokchilarining xavfsiz va erkin harakatiga to'sqinlik qiluvchi noqonuniy sun'iy to'siqlar hamda boshqa turdagi qurilmalarni o'rnatish holatlari bo'yicha aniqlangan qonunbuzilishlar kabi masalalar bo'yicha tushuntirish berish so'ralgan.

Vazirlik ma'lumotiga ko'ra, 2022 – 2025-yilda 78 844 ta yangi yo'l belgilari o'rnatilib, 49380 ta yo'l belgilari yangisiga almashtirilgan hamda 1081 ta svetfor obyekti yangidan qurilgan. Shuningdek, 20 mln. 728 ming kv.m yo'l'da yotiq chiziqlari chizilgan.

Hozirgi kunda respublikamiz bo'yicha 5425 ta foto va video qayd etish texnika vositalari o'rnatilgan. Bunda yo'l-transport hodisalarining kunlik, haftalik, oylik, choraklik, yillik gorizontal va vertikal shakldagi tahlillari, shuningdek, harakat intensivligi, yo'l infratuzilmasi holati, piyodalar va transport oqimi yuqori bo'lgan hududlar o'rganilgan holda, aholi murojaatlari hamda mutasaddi tashkilotlarning xulosalari kabi omillar inobatga olingan.

Natijada joriy yilning to'rt oyida yo'l-transport hodisalari 17,7 foizga kamayishiga erishilgan. Yo'llar va ko'chalarga o'zboshimchalik bilan asossiz o'rnatilgan yo'l belgilari hamda sun'iy notekisliklarni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan xatlov natijalari bo'yicha 132 ta harakati chekllovchi yo'l belgilari hamda 202 ta to'xtash va to'xtab turish haqidagi yo'l belgilari olib tashlangan.

Bundan tashqari, yo'llarda noqonuniy o'rnatilgan jami 203 ta turli to'siqlar hamda 308 ta sun'iy notekisliklar bartaraf etilgan.

Deputatlar tomonidan mazkur sohadagi ishlarini izchil davom ettirish, xususan, yo'l infratuzilmasini yaxshilash, foto va video qayd etish qurilmalari orqali huquqbuzarliklarni aniqlashda xatoliklarga yo'l qo'yilishining oldini olish, noqonuniy o'rnatilgan sun'iy to'siqlarni olib tashlash ishlarini jadallashtirish kabi dolzarb masalalar bo'yicha choralarni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Majlisda mazkur masala yuzasidan tizimli parlament nazorati olib borilishi qayd etilib, vazirning javobi ma'lumot uchun qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Matbuot xizmati.



◀ – Mazkur "IPO" O'zbekiston kompaniyalarining dunyo miqyosidagi ilk ommaviy qadami bo'lib, turli darajadagi investorlar uchun yangi uqlarni ochadi. Bu global iqtisodiyotda o'zbekistonlik mutaxassislar salohiyatiga ishonch yanada oshayotganiga yana bir misol, – dedi "Templeton Global Investments" kompaniyasining mintaqaviy direktori Marius Dan.

Qirg'izistonning sobiq bosh vaziri Joomart Otorbayev O'zbekiston Milliy investitsiya jamg'armasining xalqaro "IPO"sini butun Markaziy Osiyo uchun "bunilish nuqtasi" deb baholadi. Uning fikricha, bu muhim signal – O'zbekiston – global investorlar uchun ochiq va ishonchli bozor. Uning ta'kidlashicha, boshqaruvni "Franklin Templeton"ga o'tkazish, ayniqsa, muhim bo'lib, investorlarning shaffoflik va siyosiy aralashuv haqidagi xavotirlarini kamaytiradi. Kuzatuvchilarning fikricha, agar loyiha uzoq muddat muvaffaqiyatli davom etsa, bu o'z-o'zidan nafaqat O'zbekistonga, balki butun mintaqaga munosabatni tubdan yaxshilaydi. Uzoq

“Avvalroq Milliy investitsiya jamg'armasi o'zining aksiyalarini birlamchi ommaviy taklif ("IPO") qilishni muvaffaqiyatli boshlagani va buning natijasida kompaniya aksiyalari ulushining 31 foizi 603,6 million dollarga sotilgan ma'lum qilingandi. O'shanda aksiyalarning taqsimlanishi ham mahalliy, ham xorijiy investorlar uchun keng imkoniyatlar taqdim etdi: dastlabki daqiqalardayoq Toshkent fond birjasida jami sotuvga chiqarilgan aksiyalarning qariyb 3 foizi (47,9 mln. dona) o'z xaridorlarini topdi. Xalqaro bozor – London fond birjasida 1,5 trillion donaga yaqin aksiyalar global depozitar

vaqt davomida yuqori xavfli hudud sifatida qabul qilingan Markaziy Osiyo endilikda yuqori o'sish salohiyati, zamonaviy infratuzilma, energetika va yirik korporativ loyihalar bilan xalqaro investitsiyalarni jalb qiladigan makonga aylanadi.

Qisqa fursatda O'ZMIJ aksiyalariga umumiy buyurtmalar hajmi qariyb 2,5 milliard dollarga yetgani nafaqat O'zbekiston vakillarini, balki London fond birjasi rahbariyati uchun ham quvonarli voqe'lik bo'ldi.

"Franklin Templeton" bosh ijrochi direktori Jenni Jonson O'zbekiston hukumati bilan davlat korxonalarida samarali boshqaruvni joriy etish, barqaror biznes muhitini shakllantirish va mahalliy kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik qilayotganidan mamnun ekanini alohida ta'kidladi. Uning fikricha, "IPO" orqali jalb qilinayotgan xalqaro kapital O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlarini modernizatsiyalash va yangi investitsiyaviy loyihalarni ishga tushirishga turtki beradi.

Aytish joizki, xalqaro "IPO" mamlakat iqtisodiyoti choralik tushunari va jahon biznesiga maqbul bo'lganining muhim indikatorlari sanaladi. Sababi bunday maydonga chiqish uchun faqat jozibali aktivlarga ega bo'lish yetarli emas. Investorlar qator omillar, xususan, qonunchilik barqarorligi, mulk huquqlarining himoyasi, tartibga solinishning shaffofligi, iqtisodiyotning ochiqligi, davlat siyosatining xalqchilligi va demokratik tamoyillarga mosligini alohida baholaydi.

O'zbekistonda biznes uchun ma'muriy to'siqlar bartaraf etilib, soliq va moliyaviy tizimlar isloh qilinmoqda. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishga tayyorgarlik doirasida birgina 2025-yilda 68 ta normativ-huquqiy hujjat xalqaro standartlarga moslashtirildi. Eksport jarayonlari soddalashtirildi, qator chekllovlar bekor qilindi, tadbirkorlar uchun texnik va byurokratik to'siqlar sezilarli darajada qisqartirildi. Bu boradagi ishlar esa bugun xalqaro maydonga o'z natijasini yaqqol ko'rsatdi.

Darvoqe, avvalroq Milliy investitsiya jamg'armasi o'zining aksiyalarini birlamchi ommaviy taklif ("IPO") qilishni muvaffaqiyatli boshlagani va buning natijasida kompaniya aksiyalari ulushining 31 foizi 603,6 million dollarga sotilgan ma'lum qilingandi. O'shanda aksiyalarning taqsimlanishi ham mahalliy, ham xorijiy investorlar uchun keng imkoniyatlar taqdim etdi: dastlabki daqiqalardayoq Toshkent fond birjasida jami sotuvga chiqarilgan aksiyalarning qariyb 3 foizi (47,9 mln. dona) o'z xaridorlarini topdi. Xalqaro bozor – London fond birjasida 1,5 trillion donaga yaqin aksiyalar global depozitar

Abdunabi ALIQULOV
("Xalq so'zi").

Taqdimot

ISLOHOT ODIMLARI AKS
ETGAN TO'PLAM

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazida "Yurt qayg'usida 365 kun" kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz ijodkor ziyolilari, jamoat arboblari, keng jamoatchilik vakillari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, ushbu to'plamda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil davomidagi serqirra faoliyati, davlat boshqaruvi, xalqaro diplomatiya, iqtisodiy islohotlar, ekologik barqarorlik, ijtimoiy himoya, ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohalarida amalga oshirgan ishlari hujjati manbalar, tahliliy sharhlar va fotolavhalar asosida ochib berilgan.

Nashrda yil davomida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar muayyan xronologik ketma-ketlik asosida yoritildi. Kitob oylar kesimida tartiblangan bo'lib, har bir oy avvalida Prezidentimiz

"Xalq so'zi".

TA'LIM
yangiliklari

PREZIDENT MAKTABLARI
O'RTASIDAGI FESTIVAL



Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident maktablari jamoalari o'rtasida an'anaviy tarzda "Spirituality, Sport, Science, Socializing" (4S) festivali o'tkazib kelinmoqda. Bu yili festival ham yuksak saviyada tashkil etilib, unda Buxoro, Guliston, Jizzax, Navoiy, Nukus, Nurafshon, Qarshi, Samarqand, Termiz, Toshkent va Xiva shaharlaridagi Prezident maktablari jamoalari qatnashdi.

Festivalda ishtirokchilar sport musobaqalarida qatnashib, jismoniy tayyorgarliklarini namoyish etdi. Intelktual o'yinlarda bilim va mantiqiy fikrlash salohiyatlarini sinovdan o'tkazdi. Seminar va treninglarda yangi bilim hamda tajribalarga ega bo'ldi. Madaniy chiqishlar orqali milliy qadriyatlar, san'at va ijodkorlikni ko'rsatdi.

Tadbirlar davomida

o'quvchilar o'zaro tajriba almashish, yangi tanish o'rtnirish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ldi. Eng muhimi, turli shaharlardagi Prezident maktablari jamoalari o'rtasidagi do'stona aloqalar yanada mustahkamlandi.

Tadbirlar so'ngida turli musobaqa va loyihalarda faol ishtirok etgan o'qituvchi va o'quvchilar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

TANLOVNING FINAL
BOSQICHI BOSHLANDI



Joriy yilning 19 – 22-may kunlari Toshkent shahrida "Mirzo Ulug'bek vorislari" respublika tanlovining yakuniy bosqichi o'tkazilmoqda.

Tanlovning ochilish marosimi kecha Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tdi.

Mazkur bilimlar bellashuvida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan saralab olingan

O'ZDJTU talabasi Nigina SALOHIDDINOVA tayyorladi.

INTELLEKTUAL SALOHİYAT VA BIRDAMLIK
– TURKIY DUNYONING YANGI DAVRDAGI BOSH FORMULASI

Bu shunchaki texnologiya emas, bu kelajakdagi iqtisodiy o'sish nuqtalarini belgilab beruvchi "raqamli suverenitet" poydevoridir. Mintaqaning an'anaviy ravishda energiya resurslari (gaz, neft) va logistika tayangan iqtisodiyoti endi "Ma'lumotlar iqtisodiyoti" (Data Economy) bilan to'ldirilmoqda. Data-markazlarga tikliayotgan 6 milliard dollarlik investitsiya O'zbekistonni mintaqaning "raqamli xabi"ga (hub) aylantirish uchun mustahkam poydevor bo'ladi.

O'zbekiston ilgari surgan "5 million sun'iy intellekt yetakchilari" dasturi mintaqadagi demografik imkoniyatdan unumli foydalanishning eng to'g'ri yo'lidir. Texnologiyani sotib olish mumkin, lekin uni boshqaradigan mutaxassislarni tizimli ravishda tayyorlash kerak. Ushbu dastur orqali mintaqada nafaqat iste'molchilar, balki global bozor uchun SI yechimlarini yaratuvchi yangi avlod shakllanadi. Bu ihsizlik muammosini hal qilish va yuqori texnologik ish o'rinlarini yaratishda eng samarali yo'ldir.

O'zbekiston va Qozog'iston tomonidan tashkil etilayotgan Qo'shma venchur jam'armasi yoshlarning g'oyalari real biznes loyihalariga aylantirish uchun moliyaviy "lift" vazifasini o'taydi.

Sammitda tilga olingan eng noyob g'oyalardan biri – O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi negizida tarixiy-madaniy manbalarni yagona "Big Data" platformasiga jamlash. Bu – turkiy dunyoning boy merosini zamonaviy ilm-fan tiliga o'girish demak. Yassaviy tariqatining bag'rikenglik g'oyalari SI imkoniyatlari orqali tadqiq etish va targ'ib qilish mintaqada ma'rifati islom hamda ilm-fan uyg'unligini ta'minlaydi.

Texnologik rivojlanish, o'z navbatida, kibertahdidlarni ham keltirib chiqaradi. Turkiy kibexavfsizlik alyansini tuzish taklifi – mintaqaning raqamli infratuzilmasini, bank tizimlarini va davlat sirlarini tashqi



texnologik muvofiqligini oshiradi.

Dunyoda global texnologik kuchlar o'rtasida raqobat ortgan bir paytda turkiy davlatlarning yagona "Raqamli yo'lak" va "Kiberxavfsizlik alyansi" atrofida birlashishi ularning tashqi texnologik bog'liqligini kamaytiradi. Bu o'z ma'lumotlari va raqamli kelajagini o'zlari nazorat qilish demakdir.

Loyihalar samaradorligi oshadi

Ta'kidlash joizki, "E-Permit" tizimining joriy etilishi va bojxona ma'lumotlarining to'liq raqamlashtirilishi Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston va O'rta koridor kabi loyihalarining samaradorligini bir necha bor oshiradi. Bu mintaqani shunchaki tranzit yo'li emas, balki yuqori tezlikdagi raqamli savdo xabiga aylantiradi.

Prezidentimiz tashabbusi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, yagona bir maqsadga – turkiy dunyoni asrimizning intellektual va texnologik markaziga aylantirishga xizmat qiladi. Ushbu strategiyaning ahamiyati shundaki, u faqat iqtisodiy foydani emas, balki xalqlarning madaniy birligi, yoshlarning kelajagi hamda mintaqaviy xavfsizlikni ham qamrab olgan. Agar ushbu tashabbuslar to'liq amalga oshsa, turkiy dunyo yaqin kelajakda jahon iqtisodiyotida resurslari bilan birga, SI yetakchilari va innovatsion ekotizimlari bilan ham hal qiluvchi omilga aylanadi. Ya'ni intellektual salohiyat va birlik, bu – turkiy dunyoning yangi davrdagi bosh formulasi.

Aytilish joizki, o'z yo'lini maslahatlashuv platformasi sifatida boshlagan TDT formati oxirgi o'n

yil ichida sifat jihatdan o'zgardi. Ushbu o'zgarish Yevroosiyo kuchlar muvozanatining o'zgarishiga to'g'ri keldi. An'anaviy ittifoq bloklarining zaiflashuvi, global institutlarga ishonch inqirozi hamda mintaqaviy ittifoqlarning kuchayishi fonida turkiy davlatlar tarixiy va madaniy aloqalar asosida yaqinlashish qobiliyatini namoyon etdi.

E'tiborlisi, O'zbekiston 2019-yilda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zolikka rasman qabul qilinganidan beri tuzilma faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari

transport makonini yaratish masalalari markaziy o'rin tutishi bejiz emas. Turkiy davlatlar tashkiloti – kelajakdagi xavf-xatarlarga qarshi jamoaviy qalqon. 2026-yilgi Turkiston sammiti turkiy xalqlarning nafaqat madaniy, balki siyosiy va iqtisodiy jihatdan bir butun kuchga aylanayotganini namoyish etadi.

Dunyoda keskinlik ortayotgan sharoitda bunday ittifoq mintaqamizning barqarorligi va farovonligi uchun eng muhim kafolatlardan biridir. Aniqrog' aytganda, XX asrda Yevropa Ittifoqi insoniyat

“ So'nggi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti barqaror rivojlanish sur'atlarini namoyish etayotgan nufuzli tuzilmaga aylandi. Jumladan, 2025-yilda TDT davlatlari umumiy iqtisodiy salohiyati 2,4 trillion dollardan oshdi va uning dinamikasi global o'sishdan ikki barobar yuqori bo'ldi. O'tgan yili O'zbekistonning TDT mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 14 foiz o'sdi.

surdi hamda tashkilotning eng faol a'zolaridan biriga aylandi.

Ahamiyat bering, 2019 – 2025-yillar davomida Prezidentimiz tomonidan hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan 116 ta tashabbus ilgari surildi. Eng muhimi, bu takliflar qog'ozda qolib ketmadi, aksincha, ularning 64 tasi to'liq amalga oshirildi, qolganlari esa yakuniy bosqichda turibdi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning turkiy makonda integratsiya jarayonlariga nisbatan tizimli va natijaga yo'naltirilgan yondashuvini ko'rsatadi.

Strategik ahamiyatga ega qarorlar

Turkiston sammiti norasmiy maqomga ega bo'lsa-da, unda qabul qilingan qarorlar strategik ahamiyatga ega. Kun tartibida "Turkiy dunyo nigohi – 2040" dasturini amalga oshirish, bojxona to'siqlarini kamaytirish va yagona

tarixiy va siyosiy hayotida, xalqaro tinchlikning ta'minotida qanday rol o'ynagan bo'lsa, XXI asrda turkiy davlatlar birligi ham shu funksiyani, ayni paytda yanada katta siyosiy tajriba va potentsial bilan amalga oshirish imkoniga ega.

Turkiy davlatlar tashkilotining o'ziga xosligi yana shundaki, barcha a'zo davlatlarda siyosiy barqarorlik ta'minlangan va o'zaro do'stona

Turkiy davlatlar tashkiloti nafaqat a'zo mamlakatlar manfaatlariga xizmat qiladigan mintaqaviy platforma, balki xalqaro tinchlik, barqaror taraqqiyot va sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlashga hissa qo'sha oladigan muhim global subyektkga aylanmoqda. Bu esa tashkilotning siyosiy muloqot, iqtisodiy hamkorlik, transport-logistika bog'liqligi, energetik xavfsizlik va madaniy-gumanitar aloqalar sohasidagi sa'y-harakatlari tobora yangi bosqichga ko'tarilayotganini anglatadi.

Eng muhimi, TDT o'zaro ishonch, umumiy qadriyatlar va pragmatik sheriklikka tayangan holda keng mintaqada barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan samarali hamkorlik modeli sifatida xalqaro hamjamiyat e'tiborini qozonmoqda.

Ilhomjon TO'XTASINOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori, professor.

MAHALLIY ISHLAB CHIQARUVCHILAR
QO'LLAB-QUVVATLANADI

Ohangaron shahridagi sanoat zonasida o'tkazilgan "Milliy sanoat zanjiri" ko'rgazmasi mamlakatimizda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va yirik korxonalar bilan tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan muhim tadbirlardan biri bo'ldi.



Ko'rgazma

Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati hamda Elektron kooperatsiya portali hamkorligida tashkil etilgan mazkur ko'rgazmada sanoatning turli tarmoqlari uchun

mahalliyashtirish imkoniyatlari, yangi ishlab chiqarish loyihalari va zamonaviy hamkorlik mexanizmlari keng namoyish etildi.

Ko'rgazma doirasida interfaol texnologiyalardan samarali foydalanildi. Touch panellar, QR-kodlar, maxsus "Telegram bot" va "B2G" stendlari orqali ishtirokchilar korxonalar haqida tezkor

ma'lumot olish, murojaat va takliflar yuborish hamda ularning ijrosini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Interfaol ekranlarda erishilgan kelishuvlarning real vaqt rejimida namoyish etilishi tadbirning ochiq va shaffof ruhda o'tishini ta'minladi.

Otabek ISROILOV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI
RIVOJLANTIRISH MARKAZI KAFEDRALAR BO'YICHA
QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

Terapiya fakulteti:

- 1."Funksional diagnostika" kafedrası professori;
- 2."Pulmonologiya, Klinik allergologiya kursi bilan" kafedrası dotsenti;
- 3."Gastroenterologiya va fizioterapiya" kafedrası dotsenti.

Pediatrriya fakulteti:

- 1."2-akusherlik va ginekologiya" kafedrası dotsenti.

Xirurgiya fakulteti:

- 1."Tibbiy radiologiya" kafedrası dotsenti.

Menejment, ijtimoiy va birlamchi sog'liqni saqlash fakulteti:

- 1."Preventiv tibbiyot va valeologiya asoslari" kafedrası katta o'qituvchisi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 51-uy.
Tel.: (71) 267-60-74

Hukumatning tegishli qarori bilan har yili oktabr oyiga qadar 2 bosqichda Alisher Navoiy nomidagi xalqaro o'zbek tili olimpiadasi tashkil etiladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; ko'itibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga keigan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilbi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.48 Topshirildi – 23.40 1 2 3 4 5 6

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhah S. Islomov.